

Sharq filologiyasi fakulteti
5A120101- Adabiyotshunoslik
(sharq tillar va tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha)
Mutaxassisligi: 2-kurs magistranti
Safarova Hilola Abduvali qizi
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. Akbarova M

Nagib Mahfuzning “Yo'l” romanining g'oyaviy estetik xususiyatlari

Roman badiiy adabiyotning hamisha navqiron,izlanishdagi janri. Jahon adabiyotida u drama,doston singari tayanch janrlardan ancha keyin paydo bo'ldi. Roman janrining arab dunyosi,xususan, misr adabiyotidagi yutuqlariga taniqli adib Nagib Mahfuz ulkan xissa qo'shdi.

Butun jahon adabiyotida unutilmas iz qoldirgan adib Nagib Mahfuz o'z asarlari bilan o'quvchilar qalbidan joy oldi. Nagib Mahfuzning ijod mahsullari nafaqat arab tilida bo'libgina qolmay, balki boshqa rus,ingliz, fransuz va boshqa dunyo tillariga tarjima qilingan.

Nagib Mahfuz arab adabiyotida katta o'rin egallagan adib. Bu adib Misrda zamonaviy romanchilikka asos solibgina qolmay uni jahon miqyosiga olib chiqdi. O'z romanlarining mavzular ko'lamini boyitib Nagib Mahfuz jamiyatda oldi bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy masalalarni ko'taradi.Adib romanchilik mahorati va novellistik ijodi e'tirofga loyiq, shu sababli uning ijodi bilan ko'plab arab adabiyotshunoslar va adabiy tanqidchilar, amerikalik va rus arabshunoslar qiziqib tadqiqodlar olib borganlar.Nagib Mahfuzning ijodini o'rganar ekanmiz, undagi mavzular ko'lamini rang barangligini guvohi bo'lamiz. Uning romanlari sirasidan tarixiy mazmundagi romanlardan boshlanib “ong oqimi” tipidagi modernistik romanlar o'rin olgan.

Mahfuzning so`nggi yillardagi romanlari, asosan, jamiyatdagi ijtimoiy holat, isroilliklar va arablar hayotiga bag`ishlangan bo`lib, uning bu romanlari nafaqat arab olami, balki Amerikada ham tanildi. Nagib Mahfuz o`quvchilari 1988-yildagi Nobel mukofotidan so`ng yana ham ko`paydi.

1967-yilda adibning “Yo`l” romani omma e`tiboriga havola qilindi.¹ Falsafiy mazmundagi, simbolizmni o`zida aks ettirgan ushbu roman hali hanuz adabiyotshunoslarni mulohazaga undaydi. Mahfuz qahramonlari qalblarida baxt va adolatga orzu bo`lgan. Lekin ushbu orzuni amalga oshirishda qahramonlar nafs balosi, takabburlik, insonlar ustidan hukmronlik qilish kabi sinovlarni boshidan o`tqazadilar. Buni biz “Yo`l” romanida ham uchratamiz. Ushbu romanni o`qiganimizda uni ikki ma`noda tushunishimiz mumkin. Birinchisi, ikkita jinoyat sodir qilingan detektivsimon roman, ikkinchisi, insonni Alloh vasliga yetishishdagi hayot yo`li tarixi.

Ma`nolarning ikkinchisiga asos qilib romandagi qahramonlar ismlarining simbolikasini olsak bo`ladi. Bosh qahramon Sobirning otasining ismi Said Said Ar-Rahimiy, Ar-Rahimiy – Alloh hislatlarining biri ya`ni “Rahmdil”. Onasining ismi Buseyma – “tabassumxon” al-Umran, misrlik adabiy tanqidchi Luis Avad² fikricha, Buseymani qadimgi dinlar ona xudolari Isida, Astarta va inson zotining onasi Momo Havvoga qiyoslaydi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, Sobir – Yaratganning farzandi, unga aql-zakovat, his-tuyg`u berilgan.

Romanda bosh qahramon Sobir otasini izlaydi, boylik, bekam-u ko`st yashash ishtiyoqi Sobirni ko`zini ko`r qilgan edi. Tinimsiz izlanishlar foyda bermagach, Sobir jinoyatga qo`l uradi. Qahramon ismi garchi Sobir – ”sabr qiluvchi” degan ma`noni bildirsada, uning xarakteri ismiga zid ekanligini roman voqealari rivojida bilinadi. Qahramon xarakteridagi ikkilanish umuman insonga xos bo`lgan ikkilanish ekanligini ko`ramiz.

¹ Акбарова М. "Янги давр араб адабиёти" Тошкент 2009, 93 б.

² Кирпиченко В. "Нагиб Махфуз" Избранное. Москва 1990, с 16.

Otasining millioner ekanligini bilgan Sobir, uning jahon kezib, halovatda yashayotganini bilib "u shunday yashar ekan, nega men turmada bo'lishim kerak?!" degan savolni beradi. "Yo'l" romanida Nagib Mahfuz inson va Xudo o'rtasidagi munosabat masalasini aniq ko'rsatadi. Inson bu dunyoda boshqalarga emas, faqat o'z kuchiga ishonishi kerak, qilgan ishlariga o'zi javob berishi kerakligini ko'rsatadi. Asar so'ngida qahramon "Boshqalarga ishonish, suyanishning foydasi yo'q ekan" degan xulosaga keladi. Qahramon xarakteri orqali adib butun bir jamiyatga xoslikni ko'rsatadi: egoizm, mas'uliyatsizlik, takabburlik, boshqalar hisobiga kun kechirish kabi illatlar. O'zining pand-nasihatlarini orqali Nagib Mahfuz bu dunyoda jamiyat foydasi uchun, insonlarga har tomonlama ko'mak bo'ladigan har qanday har bir insonning burchi ekanligini ko'rsatadi. Ushbu mehnatni amalga oshirishdagi yo'l insonga farog'at bag'ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Akbarova M. "Yangi davr arab adabiyoti" Toshkent 2009, 93 b.
2. Some Recent Works of Najib Mahfuz: A Critical Analysis / Journal of American Research Center in Egypt, 1977
3. Кирпиченко В. "Нагиб Махфуз" Избранное. Москва 1990, с 16
4. D.Quronov, Z. Mamajonov, M.Sheraliyeva .Adabiyotshunoslik lug'ati.-T: Akademnashr, 2010